



## KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-dekabr kuni tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan Qirg‘iz Respublikasi tashqi ishlar vaziri Jeenbek Kulubayevni qabul qildi.



O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va keng ko‘lamli strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash, ularni aniq mazmun bilan boyitish masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida tashqi ishlar vaziri Jeenbek Kulubayev davlatimiz rahbariga Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadiq Japarovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston yetakchisi keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlik yuksak darajaga chiqqani va sermahsus tus olganini, shu jumladan, parlamentlar, hukumatlar, hududlar, jamoatchilik va ishbiarmon doiralari darajasidagi muloqot va almashinuvlar ancha faollashganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Hukumatlararo komissiya samarali faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston — Qirg‘iziston taraqqiyot fondi ishga tushirildi. Tovar ayirboshlash va yuk tashish hajmlari ortmoqda, mashinasozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmog‘da. Qo‘shma madaniy-gumanitar tadbirlar muntazam ravishda o‘tkazib kelinmoqda.

Faol siyosiy muloqotni davom ettirish hamda ustuvor dastur va loyihalarni, shu jumladan, "Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston" temir yo‘li qurilishini jadal-lashtirish muhimligi alohida ta‘kidlandi.

O‘ZA

## O‘ZBEKISTON PREZIDENTI MISR YETAKCHISINI SAYLOVDAGI ISHONCHLI G‘ALABASI BILAN TABRIKLADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-dekabr kuni Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi bilan telefon orqali muloqotda uni Prezident saylovida qozongan ishonchli g‘alabasi bilan samimiy qutladi.

Saylovchilarning faol ishtiroki va ovoz berish natijalari do‘st Misr xalqi amaldagi davlat rahbarining siyosati va islohotlar dasturini keng qo‘llab-quvvatlayotganidan dalolat ekani qayd etildi.

O‘zbekiston — Misr keng ko‘lamli sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Joriy yil fevral oyida Qohiraga oliy darajali tashrif davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Muloqot va almashinuvlar faol davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo hajmi oshib bormog‘da. Qishloq xo‘jaligi, geologiya, suv ta‘minoti, transport, logistika, kimyo sanoati va boshqa ustuvor sohalarida kooperatsiya loyihalari boshlandi.

Ikki tomonlama Hukumatlararo komissiya va Ishbiarmonlar kengashining navbatdagi yig‘ilishlarini o‘tkazish kelishib olindi.

Xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘ZA

### XALQARO ALOQALAR

## O‘ZBEKISTON – QATAR: O‘ZARO MUNOSABATLARDA YANGI DAVR BOSHLANMOQDA

Qatar aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha dunyodagi yetakchi davlat. Rasmiy Doha tabiiy gaz zaxiralari borasida dunyoda uchinchi o‘rinni egallasa, neft va neft mahsulotlarining asosiy eksportchilaridan biridir.

Bugun mamlakat milliy daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga, resurslar, investitsiyalardan oqilona foydalanish siyosatini yuritishga, raqobatbardosh iqtisodiyot qurishga e‘tibor qaratmoqda.

Qatar O‘zbekiston mustaqilligini 1991-yilda tan olgan. Ikki davlat o‘rtasi-

dagi diplomatik munosabatlar o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma bayonnoma 1997-yil noyabr oyida imzolangan. So‘nggi yillarda o‘zaro munosabatlar sezilarli rivojlanib, yangi bosqichga chiqmoqda.

Davomi 2-betda

### EKSPORT

## OKEAN ORTI BOZORLARI FARG‘ONA UZUMLARINI KUTMOQDA

Oltiariq tumanida yetishtirilgan uzumlar AQSH bozorlariga ham kirib bordi. Tumandagi "Sherakhun" xususiy korxonasi tomonidan joriy yil noyabr oyi boshlarida sinov tariqasida AQSHga yuborilgan 1 tonna uzum Nyu-Yorkdagi "NetCost" oziq-ovqat savdo tarmog‘i do‘konlariga tarqatildi va ikki kunning ichida sotilib ketdi.

Davomi 2-betda



### BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

## Hilola UMAROVA:

# “O‘QUVCHILARIMIZ INTELEKTUAL SALOHİYATDA HECH BIR MAMLAKAT YOSHLARIDAN QOLISHMAYDI!”

Yangi O‘zbekistonda bugun yosh avlod kamoloti, ularning istiqbolli kelajagi yo‘lida tub islohotlar amalga oshirilmog‘da. "Yangi O‘zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi" degan ezgu g‘oya bugun har bir o‘qituvchi-muallim, ota-onalar va jamiyat hayotida o‘z isbotini topmog‘da.

"Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili" deya nom berilgan 2023-yil ham poyoniga yetmog‘da. Albatta, Yangi yil arafasida har kim ortda qolayotgan davr sarhisobini qilishga chog‘lanishi tabiiy. Zotan, yil avvalida belgilangan vazifalar ijrosining ro‘yobi yangi maqsad va marralarni bajarishga kuch bergani holda, ayrim duch kelgan muammolar yangicha yondashuvlarni rejalashni taqozo qiladi.

Shunga ko‘ra, biz O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri Hilola UMAROVA bilan uzluksiz ta‘limning eng mas‘uliyatli va murakkab, shu bilan birga, qamrovi keng bo‘g‘ini bo‘lgan — maktabgacha va maktab ta‘limi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda kelgusi vazifalar xususida suhbatlashdik.

Davomi 3-betda



### BUGUNING GAPI

## SOLIQ TO‘LOVCHI MANFAATI — USTUVOR lekin u qonuniy burchini ham bajarishi shart

Davlatning moliyaviy resurslari va yillik budjetini shakllantirishning asosiy manbasi soliqlar hisobidan yuzaga keladi. Ta‘lim, tibbiyot, mudofaa, jamoat tartibi, davlat apparatini ta‘minlash kabi ustuvor vazifalar yig‘ilgan soliqlar evaziga bajariladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 63-moddasiga ko‘ra, "Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashi shart. Soliq va yig‘imlar adolatlilik bo‘lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilmasligi

kerak"ligi belgilangan. 149-moddada O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va soliqlar joriy qilishga faqat O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli ekani mustahkamlab qo‘yilgan.

Davomi 4-betda

### MEHRLI SIYOSAT

## DAVLAT TIBBIY SUG‘URTASIDAN KIMLAR, QACHON VA QANDAY FOYDALANISHI MUMKIN?

Dunyo tibbiyotida ilg‘or davolash va diagnostika usullari, innovatsion texnologiyalar keng tatbiq etilishi sohadagi og‘riqli masalalarni hal qilayotgan bo‘lsa-da, tibbiy xarajatlar qiymati qator muammolarni ham yuzaga keltirmog‘da.

Davlat tibbiy sug‘urtasi esa bu muammolarning eng optimal yechimlaridan biridir. U nafaqat aholi salomatligini kafolatlaydi, balki tibbiyotdagi og‘riqli masalalar (tibbiyot muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, korrupsiya, byurokratiya, navbatda turish, kadrlar taqchilligi va boshqalar)ga ham barham beradi.

Jahon amaliyotida, asosan, ikki turdagi — ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug‘urtaga amal qilinadi. Har ikkisi ham sug‘urtalanuvchilardan olingan badal hisobiga ko‘rsatilgan tibbiy yordam xarajatlari qoplanishi nazarda tutiladi.

Davomi 5-betda





## XALQARO ALOQALAR

O'ZBEKISTON – QATAR:  
O'ZARO MUNOSABATLARDI YANGI DAVR BOSHLANMOQDAQahramon ERGASHEV,  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston — Qatar o'rtasidagi parlamentlararo aloqalar ham izchilik kasb etgan. Parlamentlararo hamkorlik guruhlari tashkil etilishi qonun ijodkorligi jarayonini mustahkamlash va kengaytirishga yordam beradi.

Joriy yil may oyida Toshkentda Qatarning, dekabr oyida Dohada O'zbekistonning elchixonasi ochildi. Bu, o'z navbatida, munosabatlarimizni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, o'zaro manfaatli hamkorlik uqlarini kengaytirish, xalqlarimiz o'rtasidagi aloqalarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalar sezilarli darajada faollashdi. Zero, buning uchun ulkan sahohiyat mavjud.

Bugun o'zaro milliy manfaatlarini hisobga olgan holda konstruktiv muloqotning yangi shakli yo'lga qo'yildi. Ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi o'zaro ishonchga asoslangan tizimli chora-tadbirlar samarasi bugun erishilayotgan yuksak natijalarda namoyon bo'lmoqda.

Mamlakatimiz Qatarni yaqin Sharqda-gi istiqbolli iqtisodiy hamkor, deb biladi. O'zbekiston ham, Qatar ham bu borada hali foydalanilmagan ulkan sahohiyatga ega va joriy munosabatlarni faollashtirish ikki davlatning bugungi kun tartibidan o'rin olgan.

O'zbekistonda Qatar kompaniyalari ishtirokida qator sarmoyaviy loyihalar amalga oshirilyapti. Shunday loyihalardan biri Sirdaryo viloyatida Qatarning "Nebras Power" kompaniyasi tomonidan Fransiya va yaponiyalik sheriklar bilan hamkorlikda qurilayotgan 1600 MVt. quvvatga ega issiqlik elektr stansiyasidir. IES 2024-yilda ishga tushirilishi ko'zda tutilgan.

Mamlakatimiz elektr energiyasi sohasiga Qatar kapitalini jalb qilish istiqbollari mavjud. Bundan tashqari, sanoat ishlab chiqarishini va infratuzilmani modernizatsiya qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash kabi sohalarga Qatarning yetakchi kompaniyalari va moliya institutlarini jalb qilish o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi.

Savdo-iqtisodiy sohada ikki mamlakatning sahohiyati juda katta. Biz Qatar bozoriga to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, oziq-ovqat va boshqa shu kabi turli mahsulotlarni yetkazib berish imkoniyatiga egamiz. O'z navbatida, Qatardan neft, kimyo mahsulotlarini olmoqchimiz.

Keyingi yillarda turizm sohasida har ikki mamlakat uchun ham yangi yo'nalishlar

O'zbekistonda Qatar kompaniyalari ishtirokida qator sarmoyaviy loyihalar amalga oshirilyapti. Shunday loyihalardan biri Sirdaryo viloyatida Qatarning "Nebras Power" kompaniyasi tomonidan Fransiya va yaponiyalik sheriklar bilan hamkorlikda qurilayotgan 1600 MVt. quvvatga ega issiqlik elektr stansiyasidir. IES 2024-yilda ishga tushirilishi ko'zda tutilgan.

ochildi. Hozir Doha va Toshkent o'rtasida muttasil aviaqatnovlar yo'lga qo'yilgan. 2021-yil 1-martdan Qatar fuqarolarining O'zbekistonga kirishi uchun 10 kunlik viza-siz rejim joriy etilgan bo'lsa, 2023-yil iyun oyidan bu muddat 30 kungacha uzaytirildi. O'z navbatida, bizning fuqarolar uchun ham viza cheklovlari olib tashlandi. Bu turizm sahohiyati oshishiga, ikki mamlakat sayyohlari oqimi ko'payishiga xizmat qiladi.

Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning shu yil 19-dekabr kuni O'zbekistonga amaliy tashrifi, shubhasiz, ikki mamlakat xalqlari farovonligi yo'lida ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishda tub burilish yasaydi, desak mubolag'a emas.

Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar Shavkat Mirziyoyev hamda shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning faol muloqotlari natijasida mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi.

Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy yurtimizga tashrifi davomida muhim xalqaro tadbir — Qatar Amiri tashabbusi bilan ta-

sis etilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimida ishtirok etdi.

Mamlakatimiz ilk bor mazkur mukofotni topshirish tantanasiga mezbonlik qildi. Nufuzli tadbirda oliy martabali mehmonlar, dunyoning yetakchi ekspertlari, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Mukofot 2015-yilda Qatar hukumati hamda BMT shafeligida ta'xis etilgan. U korruptsiyaga qarshi kurash sohasiga o'zini bag'ishlagan va mazkur yo'nalishda ilg'or yangiliklarni joriy etgan shaxslar va tashkilotlarga beriladi.

Mukofotning bu yilgi taqdirlash marosimi mamlakatimizda o'tkazilishida katta ma'no bor. Chunki o'tgan davrda yurtimizda korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ulkan islohotlar amalga oshirildi. Ik bor korruptsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ — Kor-

rupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Bu bejiz emas, albatta. Hozir korruptsiyaning dunyo miqyosidagi zarari 3 trillion AQSH dollariga yaqin. Shu bois, mamlakatimiz ushbu o'tkir muammo oqibatlarini chuqur anglagan holda BMT, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqda.

Yurtimizda o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'layotgan korruptsiya illatining oldini olish bo'yicha muayyan ishlar qilinadi. Xususan, "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining korruptsiyaga qarshi kuch va imkoniyatlarini birlashtirib, yaxlit tizimni yaratish imkonini berdi.

Har yili Toshkentda an'anaviy Xalqaro aksikorrupsiya forumi o'tkazib kelinyapti. Bu sa'y-harakatlar natijasida keyingi yillarda mamlakatimiz "Transparency International" indeksida 42 pog'onaga ko'tarildi. "Open Data Inventory" reytingida esa joriy yilda 30-o'ringa chiqdik. Ochiq ma'lumotlar manbalari bo'yicha O'zbekiston dunyoda 4-o'rindan joy olgan.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham korruptsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimi samaradorligini oshirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish jarayonini davom ettirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Xususan, "Transparency International" xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilinadigan Korruptsiyaning qabul qilish indeksida kamida 50 pog'onaga ko'tarilishga, davlat xaridlarini to'g'risidagi qonun-

chilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobar kamaytirishga erishish maqsad qilingan.

Demokratik islohotlar ortga qaytmas tus olgan yangi O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashish borasida ham kelgusida tizimli ishlar davom ettiriladi. Davlatimiz rahbari o'z nutqida ushbu masalaga alohida to'xtalib, bu mas'uliyatli va murosasiz kurash yo'lida BMTning G'iyohvandlik moddalari va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi hamda barcha xalqaro hamkorlarimiz bilan birgalikda bor kuchimizni safarbar etishga tayyormiz, deya ta'kidladi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiya ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilishini, davlat idoralari faoliyatining yanada shaffofligini ta'minlash va hisobdorligini oshirish, ochiq ma'lumotlar tizimini takomillashtirish, sohaning huquqiy asoslari va institutsional mexanizmlarini mustahkamlashga alohida urg'u berilishi qayd etildi.

Bugungi kunda Toshkent va Doha o'rtasida korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida yaqin aloqalar o'rnatilgan. Jumladan, davlatimiz rahbarining joriy yildagi Qatarga tashrifi chog'ida shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan oliy darajada ikki tomonlama muzokaralar o'tkazilib, hamkorlikning turli sohalarini qamrab oluvchi qator hujjatlar imzolangan edi.

Qatar Amirining yurtimizga amaliy tashrifi istiqbolli yo'nalishlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Asosiysi, o'zaro munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan boyitib, manfaatli hamkorligimizni yangi, yuqori bosqichga ko'tarishga zamin yaratadi.

## EKSPORT

OKEAN ORTI BOZORLARI  
FARG'ONA UZUMLARINI KUTMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Bu jarayonda AQSHning Qishloq xo'jaligi departamenti va Oziq-ovqat mahsulotlarining sanitar nazorati boshqarmasi (FDA) tomonidan Oltiariq uzumlarining karantin talablariga mosligi o'rganib chiqilib, ijobiy xulosa taqdim etildi.

Amerikadagi yirik supermarketlar bilan hamkorlik qiluvchi "E.L.A. Superior Produce Inc." kompaniyasi bilan "Sherakhun" xususiy korxonasi o'rtasida uzoq muddatli eksport shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko'ra, endilikda 250 tonna "Kelimbarmoq" navli uzum okean ortiga yetkazib beriladi va bu savdo aloqalari doimiy davom etadi. Amerika kompaniyasi kelajakda tezkor yetkazib berishni ta'minlash maqsadida Oltiariq tumanida FDA litsenziyasidan o'tgan AQSH meva-sabzavot bazasini yaratib, shu yerning o'zida xorijiy standart talablari asosida karantin ruxsatnomasini rasmiylashtirish va qadoqlash tizimini yo'lga qo'y-moqchi.

Tadbirkor Shavkatjon Aliqulov rahbarligidagi "Sherakhun" xususiy korxonasi Rossiya va Belarus davlatlariga ham Oltiariq uzumlarini eksport qilib keladi. Belarusdagi "Dobronom", "Sosed", "Korona", "Grin" kabi 7 ta yirik supermarket tarmoqlariga doimiy uzum yetkazib berilmoqda. Ayni kunda korxonada tomonidan umumiy hajmi 400 tonna meva-sabzavot ombori qurilishi poyoniga yetmoqda.

E'tiborsiz, joriy mavsumda Farg'ona viloyatida yetishtirilgan 208 ming 400 tonna uzumning 61 ming 800 tonnasi Oltiariq tumani hissasiga to'g'ri keldi.

Bu bejiz emas, albatta. Azaldan mirishkor dehqon sifatida tanilgan oltiariqliklar har qancha yerdan foydalanish hadisini olgan. Bu zaminda yetishtirilgan sarxil uzumlarini tatib ko'rgan kishi bog'bonlar mehnati va mahoratiga tasanno aytadi. Tuproq bilan tillashish va dillashishni xush ko'rgan oltiariqliklar uzum ekish, saqlash, turlarini ko'paytirish va sotish borasida juda katta tajribaga ega. Boisi, keyingi yillarda soha rivoji yo'lida amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar tillorlang va tilyorar uzum yetishtirish hajmini oshirdi, sifatini yaxshilash imkoniyatini berdi.

— Bunday e'tirof va e'tiborga o'z-o'zidan erishilgan yo'q, — deydi tuman

hokimligi qishloq xo'jaligi bo'limi mudiri Umiddjon Bozorov. — Meva-sabzavotchilik tarmog'ida qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish, uzumchilikni rivojlantirishda klaster, kooperatsiya tizimini joriy etish bo'yicha berilgan imtiyoz va imkoniyatlar soha rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Unumdorligi past, kam hosil-lik g'alla maydonlari bosqichma-bosqich qisqartirilib, ularning o'rniga yangi tokzorlar tashkil etilgan o'z samarasini beryapti. Keyingi to'rt yilda tumanimizda 3000 gektar maydonda yangi tokzorlar tashkil etildi. Yaxshi niyatda ekilgan 1400 gektar maydondagi dastlabki uzum ko'chatlari hosilga kirdi. Har gektar yerdan olingan hosildorlik salmog'i 25-30 tonnaga yetdi. Shu kunga qadar uzum va meva yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotish yo'nalishlarida umumiy qiymati 70 milliard 654 million so'mlik 11 ta istiqbolli loyiha ishga tushirildi.

Bu juda katta imkoniyat. Avvallari ham oltiariqlik tomorqachilar uzum yetishtirgan. Ammo sarxil mahsulotning asosiy qismini ichki va yaqin qo'shni mamlakatlarga sotish bilan kifoylangan. Sababi, xalqaro bozor talablariga mos, bir nav va ko'rinishga ega bo'lgan hosilni aholidan yig'ishtirib olishning imkoni yo'q edi. Bugun hamma narsa o'zgardi. Fermer va kooperatsiya egalari tomonidan tashkil etilgan yirik uzumchilik plantatsiyalari mijozlar talabu istaklariga mos bo'lgan uzum yetishtirib bermoqda. Joriy yilning o'zida umumiy qiymati 104 mil-



lion 376 ming AQSH dollariga teng bo'lgan 9 ming 600 tonnadan ortiq mahsulot Rossiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Yevropa va okean orti mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Hozirga qadar mahsulotning asosiy qismi asosan, kuz oylarida tashqi bozorda sotilgan. Endilikda bu mevalarni yil davomida eksport qilish imkoniyati yaratildi. Keyingi ikki yilda tashabbuskor tadbirkorlar sa'y-harakati bilan umumiy sig'imi 68 ming 800 tonna bo'lgan 83 ta zamonaviy muzlatkichlar ishga tushirilgan mevalarni saqlash va sotishda juda qo'l kelmoqda. Ayni kunda mavjud omborlarda 4 ming tonnadan ortiq "Kelimbarmoq", "Husayni", "Rizamat", "Mercedes" singari uzum navlari saqlashga qo'yilgan.

Tumandagi Ko'lbo'yi mahallasi uzum yetishtirish va uni saqlashda o'ziga xos tajribaga ega. Har bir hovlida ishkom bor. Mahallada uzum pishirig'acha hosil saqlash hadisini olgan mirishkorlar ko'p. Ularning bu boradagi mahoratiga qoyil qolmay ilojingiz yo'q.

Husanboy G'ofurov uzumchilar sulolasining beshinchi avlodi. Bu xonadonda qish chillasida ham xuddi endi uzilgan, bandi ko'm-ko'k holda saqlanayotgan uzumlarini ko'rib, bahri dilligiz ochiladi.

— Uzumni keyingi yil hosili pishguncha saqlaymiz, — deydi mirishkor. — Uning uch xil usuli bor. Birinchisi, uzumni tokdan uzmay, sovuq ob-havodan himoya qilib



saqlaymiz. Yana biri, maxsus qutilarga joylab, an'anaviy yuqoridagi saqlash. Eng ommalashgan turi "baklashka", ya'ni plastik idishlarda saqlash hisoblanadi. Keyingi yillarda bu usul ancha ommalashdi. Bunda pishgan uzumni kaltagi bilan kesib, plastik idishdagi suvga solib qo'yiladi. Uzum uzoq vaqt o'z ta'imi va ko'rinishini yo'qotmaydi. Lekin hamma uzum navlari ham bu analarga mos kelmaydi. Shu bois, "Kelimbarmoq", "Husayni", "Mercedes" uzumlarini noi gradusdan past bo'lmagan yuqoridagi saqlash har jihatdan foydali.

Xonadonda uzum saqlashga moslashgan omborxonalar qurilgan. Har bir xonada 500 kilodan 2,5 tonnagacha uzum saqlash imkoniyati bor. Bog'bonning aytishicha, u tomorqada xorijdan keltirilgan "Avatar", "Aliveka" singari mahalliy iqlim sharoitimizga mos serhosil, eksportbop urug'siz uzum navlarini yetishtirish borasida ish olib boryapti. Halol mehnati ortidan ko'pning e'tiboriga tushdi. 2021-yili "Namunali tomorqachi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Mahalladagi 575 ta xonadonning aksariyatida uzum yetishtiriladi. Mehnat qilgan odam izlanishlari rohatini ko'rmqda. Bularning evaziga to'y-lar bo'lyapti, shinam uy-joylar qurilyapti. Deyarli har bir oilaning o'z avtomobili bor. Mahallada uzumchilik yo'nalishida agroturizm rivojlanyapti. Uzum yetishtirish, saqlash borasidagi ishlar bilan yaqindan tanishish, tajriba almashish istagi-

da bo'lgan xorijlik va mahalliy sayyohlar safari ko'paymoqda. Bu ezgu amallar tumandagi "Chinortagi", "Uzumchi" "Mirfozil" mahalla fuqarolar yig'inlari aholi xonadonlarida ham rivojlanyapti.

Oltiariq uzumchilik maktabi haqida so'z ketganda, asrlar davomida qarovsiz, yayoq dala-dashdagi 1000 gektar maydonda yaratilgan "Yangi O'zbekiston" uzumchilik bog'i e'tiboringizni tordati. Bu bog'larga kelgan kishi ko'z ilg'amas kengliklarda yastanib yotgan tokzorlarga oshufta bo'ladi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida olib borilayotgan amaliy islohotlar natijasida tosh-shag'aldan iborat yerlarda yangi rizq-ro'z manbai paydo bo'ladi. Yangi quduq va hovuzlar qazilib, qir-adirlarga obihayot kirib bordi. Yaxshi niyatda ekilgan ko'chatlar tup olib, yaproq yozdi. O'zlashtirilgan maydonlarning 560 gektarida tokzor barpo etilib, "Husayni", "Kelimbarmoq", "Rizamat", "Kishmish" singari bozorgir uzum navlari parvarishlanyapti. 300 gektar intensiv bog'da olma, gilos, o'rik ko'chatlari barav rivojlanmoqda. Bu yerda 2 mingdan ortiq uzumchi bog'bonlar ish bilan ta'minlandi. O'tgan yili ekilgan uzum nihollari ayni paytda sovuq havo haroratidan ehtiyotlash maqsadida ko'mib qo'yilgan.

— Yigirma sotix yerga 600 tup danaksiz "Avatar" navli uzum ko'chati o'tqazdim. Ko'chatlarimiz kelgusi yildan hosilga kiradi, — deydi qo'rg'ontepalik Murodjon

Mavlonov. — Nihollar mahalliy sharoitga mos kelib, yaxshi rivojlandi. Danaksiz uzumlarga tashqi bozorda talab yuqori. Yerdan unumli foydalanish maqsadida ko'chatlar orasiga ertaki va to'qsonbosti usulda sabzavot va poliz ekinlari ekib, daromad oylaymiz.

Yangi bog'lar yaratish, uzum yetishtirish, saqlash va sotish bilan bog'liq mustahkam zanjir yaratilishida uzumchilik kooperatsiyalarining o'rni katta bo'lmoqda. Ayni kunda bu yo'nalishda 6 ta kooperatsiya tashkil etilgan.

— Dehqonchilikda hamjihatlik bilan ish olib borish muhim, — deydi "Yangiobod zamin nihollar" uzumchilik kooperatsiyasi rahbari Qobiljon Xolmatov. — 36 gektar yerdagi uzumchilik kooperatsiyasi tashkil qilganimiz. Etilkidan ortiq a'zolarimiz bor. Ekin ekish, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish, saqlash va sotish amallarini o'zaro bamaslahat, aniq hisob-kitob asosida olib boramiz. Bu sifatli mahsulot yetishtirish, zararli hasharotlarga qarshi kurashish, tan-narxni arzonlashtirish muhim hisoblanadi. Shu kunga qadar bog' qator oralariga ishlov berishga ixtisoslashgan 3 ta mini traktor va yirik yuk tashish mashinasi xarid qilindi. Bu o'zimizda yetishtirilgan uzumni to'g'ridan-to'g'ri bozorga chiqarish imkoniyatini bermoqda.

Meva yetishtirish hajmi va sifatini oshirish, eksport geografiasini kengaytirishda serhosil, yer va iqlim sharoitiga mos ko'chat yetishtirish muhim hisoblanadi. "Xayrullo Bahrom Boymatov" fermer xo'jaligi 75 gektar yerdagi uzumchilik plantatsiyasi tashkil etgan. Bu yerda 20 turdagi xorijiy va mahalliy uzum navlarini parvarishlash, ko'paytirish borasida amaliy ishlar olib borilmoqda.

— O'tgan bahor mavsumida 250 ming tup tok ko'chatlari yetkazib berdik, — deydi fermer xo'jaligi rahbari Isoqjon Boymatov. — Asosiy e'tibor ham ichki, ham tashqi bozorda xaridorigir bo'lgan "Kelimbarmoq", "Husayni", "Rizamat", "Mercedes" navlarini ko'paytirishga qaratilyapti. Bundan tashqari, bobomeros uzum navlarini qayta tiklash maqsadida "Ef-1", "Maksim" singari yangi navlarni mahalliyashtirish borasida izlanishlar olib boryapmiz. Bu navlar erta-pisharliq, serhosilligi va uzoq vaqt saqlanish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ayni kunda ko'chat ekish mavsumi uchun 200 ming tupdan ortiq tok ko'chatlari yetkazib beramiz.

Sirasini aytganda, uzumchilik borasida Oltiariq tajribasini ommalashish yo'lida bajarilayotgan ishlar aholi farovonligini oshirib, eksport sahohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri







## TARAQQIYOT MEZONLARI

**B**iznesdan xabardor odam yaxshi biladi, mahsulot yetishtirish bir karra daromad bo'lsa, uni qayta ishlab, iste'molga tayyor holda sotish bir necha barobar foyda. Agar mahsulot chet ellik xaridorlarga ham ma'qul kelib, tashqi bozorga chiqa boshlasa, ishbilarmon daromadini o'n chandon ortig'i bilan hisoblayversha bo'ladi. Qarabsizki, mahalliy ishbilarmon asta-sekin eksportiyorga aylanib, milliy brendimizni jahon bozoriga olib chiqadi.

Biznesning qoidasi shunday. Ishlab chiqarishga mos tarzda qayta ishlash va eksport ko'rsatkichlari ham oshib borishi kerak. Ya'ni taklifga yarasha doim talab bo'lishi zarur. Bugun shu yo'nalishda yetakchilar qatori turgan Xitoy, Singapur, Germaniya kabi rivojlangan davlatlar ayni jihatlar bilan jahon bozorining katta qismini egallab turibdi. Ular biznesni boshqara oldi, tovar sotayapti, eksportda yuqori natijaga erishyapti.

O'zbekiston ham ana shu davlatlar yo'lidani dadil boryapti va sarhisob pallasida oxirgi yillarda katta ishlar qilingani ko'zga tashlanadi. Yaqin 6-7 yilda kichik va o'rta biznes iqtisodiy

# QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRI VA EKSPORT

## daromadni o'n karra oshiradi

yotimzning drayver sohasiga aylandi. Yaratilgan qulay biznes muhiti xorijlik investorlarni ham hamkorlikka undamoqda, sohaning huquqiy kafolati ta'minlanishi ortidan mahalliy tadbirkorlar soni oshib boryapti. Ularning har biri iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish, qayta ishlash quvvatlari, eksport hajmi o'rta oshirishga hissa qo'shyapti.

Davlatimiz rahbari raisligida shu yil 18-dekabr kuni hududlarda ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va xizmatlarni rivojlantirish masalalari muhokamasi yuzasidan o'tka-

zilgan videoselektor yig'ilishida bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish bugun dunyoda yuz berayotgan turli keskin vaziyatlar sharoitida, ayniqsa, muhim ekan ta'kidlandi. Gap iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish bilan birga, qayta ishlash va eksport hajmini oshirib, raqobatbardosh mahsulotlarni ko'paytirish ustida bormoqda. Shu maqsadda endilikda tizimni takomillashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilanib, hududlarda ishlab chiqarish, sanoat zonalar va eksport Savdo-sanoat palatasi zimmasiga yuklatildi.

loyihalariga resurs sifatida 200 million dollar ajratiladigan bo'ldi. Bu mablag'lar hisobiga sohadagi tadbirkorlar qo'llab-quvvatlanadi. Qolaversa, Yuqori Chirchik tumanida gazlama ishlab chiqarish va bo'yoqxonalar tashkil qilish bo'yicha 350 million dollarlik, Nukus shahrida sun'iy tola, gazlama-mato va bo'yoqxonalar yo'nalishida 60 million dollarlik loyihalar rejalashtirilgan. Hududlarda bo'yoqxonalar tashkil etilishi katta qulaylik beradi. Bu shu yo'nalishdagi korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlarini kamida 15 foiz qisqartiradi.

Oldimizga qo'yilgan vazifalardan yana biri va eng muhimi eksportyor korxonalarini jahon bozoriga olib chiqishdir. Ya'ni mahalliy mahsulotlar keng eksport qilinishida biznes vakillariga faol ko'maklashishimiz zarur. Buning uchun Eksport agentligiga qo'shimcha 50 million dollar ajratildi. Tadbirkorlarni bu yo'nalishda qo'llab-quvvatlash asosida tashkil etish belgilangan.

bo'yicha boshqa imtiyozlar ham berilib, ishlarni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish belgilangan.

Hozir tadbirkorlarimizning aksariyati mahsulotini xorijga chiqarishga intilmoqda. Chunki yurtimizning chet davlatlar bilan faol hamkorligi, yangi bozorlar ochilishi shunga sharoit va imkoniyat yaratyapti. Ana shu harakatlarni yanada faollashtirish, eksportyorlar sonini oshirish maqsadida Savdo-sanoat palatasiga mato, kiyim, gilam, poyabzal, charm, oziq-ovqat, uy buyumlari va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarini brendlar talablariga to'liq moslashtirib, buyurtmalarni joylashtiruvchi sorsing kompaniyalar bilan bog'lash vazifasi qo'yildi.

Mahalliy tadbirkorlarimizning xalqaro ko'rgazmalarda ishtirokini yanada ko'paytiramiz. Yevropa va Osiyo shaharlarida savdo uylari ochish ham asosiy maqsad-vazifalarimizdan biri. Joriy yilda har bir viloyat va tuman Savdo-sanoat palatasining oliy ma'lumotli xodimlari bilan to'liq qamrab olinadi. Shu orqali tadbirkorlik subyektlarini tuman-dan viloyatga, viloyatdan respublikaga bog'laydigan zanjir shakllantirildi. Demak, bundan keyin yurtimizdagi tadbirkorlar bilan aloqalarimiz yanada mustahkamlanadi.



**Davron VAHOBOV,**  
Savdo-sanoat palatasi raisi:

— Ushbu yo'nalishlarning bari bevosita tadbirkorlik bilan bog'liq bo'lgani uchun ularni bir nuqtada birlashtirish aniq vazifalar doirasida harakat qilish va natijadorlikni oshirishga imkon beradi. Shu bois, Eksport agentligi va jamg'armasi, "O'zbekeksperiza" tashkiloti ham Savdo-sanoat palatasi tizimiga o'tkazildi. Ya'ni mamlakatimiz ishbilarmonlari endi har qanday faoliyati davomida, ishlab chiqarishdan tortib, eksportda kerak bo'ladigan barcha zarur yordamlar bir tizimda, aynan tadbirkorlarning o'zi boshqaradigan tashkilotda ko'rsatiladi. Davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, bu tadbirkorlarni ehsitish, talab va istaklarini amalga oshirish uchun kerak.

Savdo-sanoat palatasi faoliyati tadbirkorlik subyektlari bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi kunda yurtimizda kichik tadbirkorlik subyektlari soni 600 mingdan ortiq ekanini inobatga olsak, ko'lam naqadar keng ekan yuqori ko'rinadi. Bu biznes egalarni shunchaki tinglash va huquqiy maslahat berish emas, balki amaliy va moliyaviy aniq takliflar asosida qo'llab-quvvatlash zarurati oshiradi. Shu bois, palataga qo'shimcha vakolatlarni berilishi barobarida iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish va mahalliyashtirishni rivojlantirish, eksport ko'rsatkichlarini oshirish, viloyat va tumanlarda loyiha ofislarini shakllantirib, bu tizimni yanada takomillashtirish, tadbirkorlarga loyihalarning jolibadorligini ko'rsatib berish bo'yicha katta vazifalar qo'yildi.

Ularning har biri alohida yo'nalish bo'lib, umumiy rivojlantirish bo'yicha aniq ishlar qilinadi. Masalan, mahalliyashtirish va ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan, mahalliy korxonalar kesimida keyingi bosqichga olib chiqish, ya'ni ularni import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali kichik biznesni yirik korxonalar bilan kooperatsiya qilish bo'yicha ishlanadi.

Mamlakatimizda deyarli barcha tarmoqda xomashyo ham, ularni qayta ishlash imkoniyatlari ham yetarli. Faqat buni ishga solish kerak. Masalan, birgina to'qimachilikda kelgusi yilda ana 700 million dollarlik qo'shilgan qiymat yaratish mumkin. Buning uchun yangi

## BUGUNNING GAPI

# SOLIQ TO'LOVCHI MANFAATI — USTUVOR

Boshlanishi 1-betda

20-dekabr kuni bo'lib o'tgan Oliy Majlis Senatning 48-yalpi majlisida "Soliq va byudjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunning ma'qullanishi buning yana bir amaliy tasdig'idir.

Senatlar qayd etganidek, mazkur qonunda 2024-yil uchun soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilanib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, o'zini o'zi band qilgan shaxslarga soliq solish tartibini takomillashtirish, qo'shilgan qiymat solig'i zanjirining uzluksizligini ta'minlash, tabiiy boyliklardan samarali va oqilona foydalanish, mutlaq summada belgilangan soliq stavklarining kutilayotgan inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda, indeksatsiya qilinishi nazarda tutilmoqda.

Tadbirkorlik subyektlari manfaatidan kelib chiqib, ularga qulaylik yaratish maqsadida 2024-yil uchun belgilangan asosiy soliq stavkalari — foyda (15 foiz), qo'shilgan qiymat (12 foiz), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad (12 foiz), yuridik shaxslarning mol-mulk (1,5 foiz), qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun yer solig'i (ekinzorlarning normativ qiymatiga nisbatan belgilangan 0,95 foiz), ijtimoiy (12 foiz, byudjet tashkilotlari uchun 25 foiz), aylanmadan olinadigan soliq (4 foiz)lar o'zgarishsiz qoldirilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida mazkur qonun loyihasi muhokamasida iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosari Ahadbek Haydarov tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha yengilliklar yaratish maqsadida kameral soliq tekshiruvida tadbirkordan hujjat talab qilish, bino va hududlarga kirish yoki uni idoraga chaqirish taqiqlanayotgani

ni e'tirof etgan edi. Shu bilan birga, biznes yuritishni soddalashtirish maqsadida soliq hisobotini saqlash va soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddatlari qisqartirilib, besh yillik muddat uch yil qilib belgilanmoqda. Foyda solig'i bo'yicha har oy bo'nak to'lovlarini to'lashi lozim bo'lgan tadbirkorlar daromadining chegaraviy miqdori 5 milliard so'mdan 10 milliard so'mga oshirilmoqda.

Soliq to'lovchilarga yengilliklar yaratish maqsadida qo'g'ozbozlikni bartaraf etish, ortiqcha hujjatlar talab qilmaslik va ularning vaqt hamda mablag'larini sarflanishini kamaytirish uchun soliq organlarining ularidan (soliq agentidan) hujjatlar talab qilib olish vakolati bekor qilinmoqda.

Ma'lumki, o'z ishini o'zi topib, uni o'zi bajarish orqali daromad ko'radigan kishilar o'zini o'zi band qilgan shaxslar toifasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, ularning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmaydi. Ixtiyoriy asosda bir bazaviy hisoblash miqdorida ijtimoiy soliq to'laydi. Binobarin, mazkur yo'nalishda faoliyat yuritadigan kasb-korlik turlari kengayib borib, hozirgi kunda ular soni yuzdan ortdi.

Endilikda o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlar) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida 100 million so'mdan oshgan kundan e'tiboran, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliq to'lashi qonunda nazarda tutilmoqda. Shu bois, yakka tartibdagi tadbirkorlar va ularning faoliyat turlarini solishtirish hamda keyinchalik ro'yxatini qayta ko'rib chiqish rejalashtirilmoqda.

Xorijiy va mahalliy tadbirkorlar uchun bir xil sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston



Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlar) realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari, shuningdek, chet davlatlarning qonunchiligiga binoan tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar, agar tovarlarni (xizmatlar) realizatsiya qilish joyi deb O'zbekiston Respublikasi e'tirof etilsa, u holda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lishi belgilanmoqda.

Og'ir yuk mashinalari tomonidan respublikada va mahalliy darajadagi yo'llardan foydalanishda ularni yaroqsiz holga keltirish oqibatida yetkazilayotgan zararlarni qoplash maqsadida yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtotransport vositalari va tirakmalarining avtomobil yo'llari bo'yab harakatlanishi huquqi uchun yig'im joriy etilmoqda.

yig'imdan tushgan mablag'lar ijtimoiy ahamiyatga ega dasturlarni moliyalashtirishga yo'naltirilayotganini o'qib mamnun bo'ldim, — deydi iqtisod fanlari nomzodi, ekspert Ro'zimboy Qurbonov. — Unga muvofiq, 2024-yil 1-iyuldan boshlab avtomobil shinalarining bir donasi vaznidan (kilogramm uchun) kelib chiqqan holda, bazaviy hisoblash miqdorigina 0,3 foiz ulushiga teng bo'lgan utilitatsiya yig'imi joriy etilmoqda. Bunda shinalarning o'rta-tacha vazni hisobga olinib, utilitatsiya yig'imi miqdori yangi avtomobillarning uchun o'lchami R12 dan R20 gacha bo'lgan shinalarga 6,2 mingdan 16,2 ming so'mgacha, yuk avtomobillari uchun o'lchami R16 dan R18 gacha bo'lgan shinalarga 11,3 mingdan 58,8 ming so'mgachani tashkil etadi. Masalan, shunday yig'im qo'shimmi Qozog'istonda ham mavjud, yengil avtomobil shinasini (R13) donasi uchun 7,9 ming so'm, yuk mashinasiga (R18) 78,4 ming so'm miqdorida undiriladi.

Mamlakatimizda avtomobil shinalarini utilitatsiya qilish yig'imidan kelib tushgan mablag' atrof-muhitni muhofaza qilish va "Yashil makon" dasturi doirasidagi loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirish taklif etilayotgani uning ahamiyatini yanada oshiradi.

Yana bir e'tibori jihat, 2024-yil 1-apreldan boshlab tarkibida shakar yoki boshqa shirinlantiruvchi va (yoki) xushbo'yashiruvchi moddalar qo'shimchalari bo'lgan mineral va gazlangan ichimliklarga 1 litr uchun 500 so'm, shuningdek, energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklarga 1 litr uchun 2 ming so'm miqdorida aksiz solig'i joriy etilmoqda. Binobarin, bu taklif Jahon solig'liq saqlash tashkilotining tarkibida shakar va boshqa turdagi shirinlantiruv-

(UPS), rentgen va diagnostika uskunasini, optik tolali kabel, quyosh panellari uchun silikon qoplamali kabel kabi yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilishi o'zlashtirildi. Kelasi yili qiymati 2,6 trillion so'mlik 20 turdagi mahsulot o'zlashtirilishi rejalashtirilgan, planshet va monoblok, quyosh panellari va shamol elektr stansiyalarida foydalaniladigan maxsus kabel, aqlli suv o'lchagich kabi import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Yurtimiz elektrotexnika sanoatidagi eng katta yutuqlardan yana biri misni qayta ishlash hajmi ortib borayotganidir. Joriy yilda bu ko'rsatkich 90 ming tonnaga yetgan bo'lsa, 2025-yilga borib, 140 ming tonnadan oshirish reja qilinmoqda. E'tiborlisi, mis xomashyosida tayyorlangan mahsulotlarning aksariyat qismi, ya'ni qiymati qariyb 500 million dollarga yaqin mahsulot eksportga yo'naltirilib, sohamizda yuqori qo'shilgan qiymati mahsulotlar ulushi 2017-yildagi 63,1 foizdan 93,7 foizga chiqdi. Qayta ishlash darajasini oshirish hisobiga 1 tonna mis xom-ashyosining eksportda o'rta-tacha qiymati 167 dollardan 583 dollarga yetdi. Mazkur xomashyodan ishlab chiqarilgan mahsulotlar ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, 2017-yilda asosiy ko'rsatkich mis simlar, plita va listlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, joriy yilda yuqori kuchlanishli va koaksial kabel hamda boshqa elektrotexnika jihozlari hisssasi ancha ortgan.

Umuman, elektrotexnika sanoatida imkoniyatlar yuqori. Soha tadbirkorlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgan e'tibor esa ana shu imkoniyatlardan kengroq foydalanishga yo'l ochyapti.

**"Yangi O'zbekiston" muxbiri Iroda TOSHMATOVA yozib oldi.**

## YANGI TURDAGI MAHSULOTLAR O'ZLASHTIRILMOQDA

Bugungi kunda xomashyoni qayta ishlab, tayyor mahsulotga aylantirish ko'rsatkichlari, ayniqsa, yurtimiz elektrotexnika sanoatida yuqori. Bu oxirgi yillardagi o'sish ko'rsatkichlari bilan bog'liq. Ya'ni yirik elektrotexnika bozori yaratildi. Bunday turdagi mahsulotlarning ichki bozorlarimizga kirib kelish ko'lami bir necha barobar ortishdan tashqari, mahalliy ishlab chiqarish quvvatlari ham oshib boryapti. Joriy yilda tarmoqdagi eksport hajmi 1 milliard dollarga yetgani buning yaqqol isboti.

Demak, elektrotexnika sanoatida yirik qiymatdagi loyihalarni amalga oshirish imkoniyati bor. Bu hozircha 2 milliard dollar, deb

baholanmoqda. Masalan, qurilayotgan 27 gigavatt quvvatli quyosh va shamol stansiyalari uchun 500 million dollarlik kabelga ehtiyoj bor. Maishiy texnika, transformator kabi uskunalarga ham talab yuqori. Kelgusi yilda Ohangaron sanoat zonasida ishga tushiriladigan 5 ta loyiha hamda Buxoro shahrida tashkil etiladigan texnopark shu mahsulotlarni mahalliyashtirishga yo'naltirilgan. Ammo bu ishlarning bir qismi, xolos. Katta bozorni to'ldirish uchun ishlab chiqarishni yanada ko'paytirish, eksport hajmini oshirib borish talab etiladi.

### Mirziyod YUNUSOV,

#### "O'zeltexsanoat" uyushmasi raisi:

— Milliy brendlarni yaratish, ularni jahon bozoriga olib chiqish barcha sohalarda qatori elektrotexnika sanoati uchun ham muhim. Biz yillar davomida bu turdagi mahsulotlarni, asosan, import qilib kelganmiz. Shunda ham bozor to'liq ochilmagan, mahsulotlar turlari u qadar ko'p emasdi. Hozir esa nafaqat istalgan elektrotexnika mahsulotini olib kirish, balki mahalliy brend ostida ishlab chiqarish imkoniyatlari ham yuqori. Buning isboti o'laroq aytilish mumkinki, 2016-yilda yurtimizda elektrotexnika sanoati korxonalarini soni 97 ta bo'lgan bo'lsa, bugunga kelib mingdan ziyod.

Tarmoqda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yildan-yilga oshib borayotir. Soha korxonalarini quvvatining o'rta-tacha foydalanish darajasi 83 foizdan oshgan. Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi ham 2017-yildagidan 1,5 barobar oshib, 93,7 foizni tashkil etyapti.

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yil noyabr oyida o'tkazilgan yig'ilishda elektrotexnika sanoatini kelgusi yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha aniq topshiriqlar berilgan edi. Shu asosda 2024-2026-yillarda amalga oshiriladigan, umumiy qiymati 1,9 milliard dollarga teng 185 ta investitsiya loyihasi paketi shakllantirildi. Mazkur loyihalar hisobiga kelasi yilda tarmoqda ishlab chiqarishni 20 foiz oshirish, misni qayta ishlash hajmini 140 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilgan.

Sohani sanoat texnoparklari ko'rinishida rivojlantirish istiqboliga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Bu mahalliy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashda ham qo'shimcha imkoniyatlar beradi. Ana shu tizim doirasida kelasi yili mis klasteri hududida umumiy qiymati 120 million dollarlik 5 ta loyiha bajarilib, 25



ming tonna misdan kabel va 1,5 mingta transformator ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi. Buxoro viloyatida 120 million dollarlik maishiy texnika texnoparkining birinchi bosqichi ishga tushirilib, 25 million dollarlik ishlab chiqarish quvvati yaratish rejalashtirilgan. Yangi loyihalar orqali yurtimizda quyosh panellari ishlab chiqarish quvvatini 790 megavattga, quyosh suv isitkichlarini 200 ming donaga yetkazish belgilangan. Bu yo'nalishda BAAning "Masdar" va "ACWA POWER" kompaniyalari bilan energetika yo'nalishida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida umumiy qiymati 316 milliard so'mlik mahsulotlar yetkazib berish bo'yicha shartnomalar imzolangan.

Elektrotexnika bozorida talab ortishi hisobiga mahalliyashtirish darajasi ham o'sib boryapti. Birgina joriy yilning o'zida monoblok, yuqori kuchga ega stasionar akkumulyatorlar

**Abdurauf QORJOV,**  
sharhlovchi



**MEHRLI SIYOSAT**



**Davlat tibbiy sug'urtasi davlat budjeti mablag'i hisobidan aholini kafolatlangan, sifatli tibbiy xizmat va dori-darmon bilan ta'minlash tizimi hisoblanadi. Bu sug'urta uchun aholi pul to'lamaydi, aksincha, salomatligi davlat byudjeti mablag'i hisobidan sug'urtalanadi.**



# DAVLAT TIBBIY SUG'URTASIDAN KIMLAR, QACHON VA QANDAY FOYDALANISHI MUMKIN?

**Risolat MADIYEVA,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

O'z-o'zidan savol tug'iladi: aholining ishsiz yoki juda kam daromadli qatlami o'z sog'lig'ini sug'urta qila olmasa-chi? Ular qanday davolanadi? Deiylik, yuqori texnologiyaga asoslangan jarrohlik amaliyotini o'tkazish zarurati tug'lsa yoki yurak nuqsoni, murakkab transplantatsiya amaliyotiga ehtiyoj paydo bo'lsa, kam ta'minlangan aholi qatlami bunga mablag'ni qayerdan topadi? Davlat tibbiy sug'urtasida esa bu savollarga munosib javob bor.

## Davlat tibbiy sug'urtasi nima?

Davlat tibbiy sug'urtasi davlat budjeti mablag'i hisobidan aholini kafolatlangan, sifatli tibbiy xizmat va dori-darmon bilan ta'minlash tizimi hisoblanadi. Bu sug'urta uchun aholi pul to'lamaydi, aksincha, salomatligi davlat byudjeti mablag'i hisobidan sug'urtalanadi.

Afzalligi nimada, degan haqli savol tug'iladi.

Jarayon raqamlashtirilishi natijasida ortiqcha qog'ozbozlikka chek qo'yiladi. Yo'llanma tizimi orqali bemorlarning ortiqcha ovoragarchiligi oldi olinadi. Kafolatlangan paket doirasida barcha tibbiy xizmatlarning bepul ekanini ta'minlanadi. Tibbiy xizmatlar bozorida davlat tibbiyot muassasalari bilan birga xususiy tibbiyot tashkilotlari ham ishtirok etadi. Surunkali kasalligi bo'lgan bemorlarga dori-darmonlar orqali bepul dori beriladi.

Bu bilan sohaga ajratilayotgan budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, kasalliklarni erta aniqlash, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini va samaradorligini yanada oshirishga erishiladi.

Prezidentimizning 2020-yil 12-noyabrda "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, mamlakatimizda ushbu tizim bosqichma-bosqich amalga kiritilmoqda.

## Sirdaryo tajribasi

Qaror asosida O'zbekistonda ilk bor Sirdaryo viloyatida sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov loyihasi amalga oshirildi.

O'tgan vaqt davomida tibbiy xizmatlar xaridi yo'lga qo'yildi. Ya'ni tibbiyot muassasalari bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra, ularning faoliyati moliyalashtirildi. Kafolat paketi ishlab chiqildi va birlamchi tibbiy yordamning bepulligi belgilab qo'yildi.

Sirdaryo viloyatida 11 ta tuman markaziy, yana shuncha ko'p tarmoqli, 36 ta oilaviy poliklinika, 56 ta oilaviy, 35 mahalliy shifokorlik punkti bor, — deydi Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi (DTSJ) Sirdaryo bo'linmasi boshlig'i Olimjon Bekmurodov. — Ularda davlat tibbiy sug'urtasi talablariga ko'ra, aholiga kafolatlangan paket asosida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatilmog'ida. Bundan bir necha yil avvalgiga nisbatan har bir bemorga ajratilgan mablag' miqdori 12 barobar oshdi. Davlat tibbiy sug'urtasi tizimi nafaqat davlat tashkilotlari, balki xususiy tibbiyotga ham joriy etilmog'ida. Ya'ni aholi nafaqat davlat shifoxonasi, balki o'zi istagan xususiy klinikada kafolatlangan bepul tibbiy xizmatni olishi mumkin. 2023-yilda bemorlarda o'tkazilgan yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti uchun sarflangan 751 milliard so'mni DTSJ qoplab berdi.

Oilaviy shifokor yo'llanmasi asosida bepul tibbiy yordam ko'rsatish tartibi joriy qilinishi ko'plab dardmand dillarga malham bo'ldi. Shifoxonaga ana shunday yo'llanma bilan murojaat qiluvchilar soni oshdi.

Tibbiy sug'urta tizimi doirasida viloyat aholisi oilaviy poliklinikaga birlashtirildi, — deydi jamg'arma matbuot xizmati rahbari Sayyora Shoyeva. — Ambulator kartalar elektron shaklga o'tkazildi. Bemor uchun ham, shifokor uchun ham bu ancha qulay. Qog'oz shaklida ro'yxatga olishda ambulatoriya yozuvlarini qidirish, shifokor ularni tekshirishga ko'proq vaqt sarflangan bo'lsa, elektron shaklda kasallik tashxisi va

davolash holati to'g'risida barcha ma'lumotlar mavjudligi uchun vaqt tejalandi. Shu asosda poliklinikaga yoki shifoxonaga murojaat qilgan shaxsga yakka tartibda maslahat berish, zarur hollarda esa uni nazoratga olish va reabilitatsiya jarayoniga jalb etish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Maqsad — kasalliklarni barvaqt aniqlash, tibbiy yordamning birlamchi bo'g'inida malakali va sifatli xizmat ko'rsatish, aholi salomatligi va o'rta umr ko'rish darajasini oshirish. Viloyatdagi tibbiyot muassasalarida 418 ta tibbiyot brigadasi tashkil etilib, aholi tibbiy ko'riqdan o'tkazildi. Masalan, joriy yilning o'tgan davrida viloyatda yashaydigan 40 va undan katta yoshdagi 299 mingdan ortiq kishi yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavf omilini aniqlash uchun skrining tekshiruvga jalb qilindi.

## Reimbursatsiya nimaning anglatadi?

Davlat tibbiy sug'urtasi tizimida surunkali kasallikka chalingan bemorlarga zarur dori-darmonni muntazam yetkazib berishga e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ular elektron retsept asosida dori-darmonni jamg'arma bilan shartnoma tuzgan dori-darmonlardan bepul olish imkoniga ega bo'lmoqda.

Bu reimbursatsiya deyiladi. Reimbursatsiya inglizcha so'z bo'lib, "xarajatlarni qoplash" ma'nosini anglatadi. Unga ko'ra, bemor o'ziga yaqin dori-darmonni dori-darmonni oilaviy shifokorning elektron retsepti asosida olishi mumkin.

Arterial gipertoniya, yurak ishemik kasalligi, qandil diabetning 2-turi, bronxial astma, o'pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari



chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida keltirilgan.

Unga ko'ra, bolalikdan nogironlar, chin yetimlar, I va II guruh nogironlari, 1941-1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek, ularga tenglashtirilgan shaxslar, yoshga oid pensiyaga chiqqan, ishlamaydigan shaxslar, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha 18 yoshga to'lmagan patologiyali bolalar, endokrin, sil, onkologik kasalliklarga chalinganlar kabi 18 toifadagi bemorlar bu imtiyozlardan foydalanishi mumkin.

shifokor Bolalar milliy tibbiyot markaziga borish uchun yo'llanma berdi. Malakali shifokorlar ko'rigidan so'ng Abdullada og'ir jarrohlik amaliyoti o'tkazildi.

O'zimdand o'tganini o'zim bilaman. Dardini berding-ku, shifosini ham bergin, deb Yaratganga ming iltijo qildim, — deya eslaydi operatsiya kunini Malika Iskinova. — Bolam juda ko'p terlardi, ko'zlarining tagi, og'iz atrofi birpasda ko'karib qolar, ba'zan hushidan ketardi. Operatsiya qildirisham imkonim yo'q, farzandimdan ayrilib qolamanmi, deb qo'rqardim. Shunday yaxshi shifoxonada yo'llanma asosida, bepul operatsiya qildirishga imkon yaratgan uchun davlatimizga ming rahmat. Jarrohlik amaliyoti, davolash, dori-darmon, umuman, hech qaysi xizmat uchun pul to'lamadik. Barchasini tibbiy sug'urta jamg'armasi qoplab berdi. Operatsiyadan muvaffaqiyatli o'tdik. Bolam sog'lom hayotga, bag'rimga qaytdi. Bu yerda shart-sharoit yaxshi, barcha qulayliklar yaratilgan, uch mahal issiq ovqat beriladi. Shifokor va hamshiralari malakali, shirin so'zli. Bunday e'tibordan minnatdorman.

Davlat tibbiy sug'urtasi tizimi har bir inson tibbiy xizmatdan teng foydalanishi, sog'lom va baxtli yashash huquqini ta'minlashni ko'zda tutadi. Ayniqsa, betoblik qarshisida chorasiz oilalarga ko'mak, e'tibor qaratish, ular qalbiga butunlik, quvonchni qaytarish eng katta maqsaddir.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi bilan faoliyatimiz samarali bo'lmoqda, — deydi Bolalar milliy tibbiyot markazi direktori o'rinbosari Akbar Rahmatullayev. — Joriy yilda 36 milliard so'mlik tibbiy xizmat ko'rsatishni rejalashtirilgan edi. Lekin davolash hajmi ortgan hisobidan tibbiy xizmatlar uchun qo'shimcha ravishda yana 24 milliard so'm ajratildi. Yuqori texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan markazimizda murakkab jarrohlik amaliyotlari o'tkazilmoqda. Bu yil bolalarga suyak ko'migini ko'chirib o'tkazish, transplantatsiya kabi yangi turdagi amaliyotlarni bajarishga kirishdik. Xususan, 20 bolada suyak ko'migini ko'chirib o'tkazish bo'yicha Belarus bilan shartnoma tuzilgan va bitta amaliyot 125 ming dollar narxlangan edi. Hozir bu ish markazimizda yo'lga qo'yildi va bitta amaliyot 8 ming dollarga bajarilmoqda.

Markazda buyrak ko'chirib o'tkazish amaliyoti ham sinovdan o'tdi. Shu kunlarda jigar transplantatsiyasini o'zlashtirishga harakat qilinmoqda. Yana bir yangilik — tutqanoq (epilepsiya) kasalligiga duchor bo'lgan bolalarda chip o'rnatish, ya'ni VIS (vagus nervi stimulyatsiyasi) ilk bor markazda mustaqil amalga oshirildi.

Bitta chipni bemorga o'rnatish 2000-2500 dollar atrofida bo'lib, kasallik qaytalanmaydi va bemor to'laqonli sog'lom hayotda yashaydi.

Markaz neyroxirurglari miyani davolash uchun juda yuqori texnologiyali operatsiyani bajarilmoqda. Glomerulonefritni davolash, skolioz operatsiyalari o'tkazish juda katta yutuq hisoblanadi. Mamlakatimizda bitta bemordagi umurtqa qi'yshayishi — skolioz kasalligini davolash uchun 50 million so'm talab etiladi va bu ham Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi orqali qoplab berilmoqda. Xuddi shu operatsiya Turkiya 25 ming dollar turadi. Endi tasavvur qiling, 25 ming

dollar qayoqda-yu, 50 million so'm qayoqda? Yana eng og'ir turdagi amaliyotlar uchun to'lovni davlat amalga oshirsa...

Joriy yilda markazda 123 turdagi yangi tashxisdagi kasallikka davo choralarini qo'llanildi. O'zbekistonda bu kabi kasallik turlari shu kunga qadar ro'yxatga kiritilmagan edi. Sababi, yangi amaliyotlar bo'yicha mutaxassislar, tibbiy asbob-uskunalar yetarli emasdi. Endi esa davlat tibbiy sug'urtasi tizimida buning uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjud.

## "Kapalak bolalar" haqida eshitganmisiz?

Bu ibora terining kam uchraydigan genetik kasalligi — bullyozli epidermoliz bilan tug'ilganlarga nisbatan ishlatiladi. Shu kasallik bilan tug'ilgan bolalarning zaif terisi kapalakning nozik qanotlariga o'xshatiladi. Hozir mamlakatimizda bunday tashxis bilan tug'ilgan 360 bola ro'yxatga olingan. Ular doimiy parvarishga, e'tiborga muhtoj.

Ixtioz esa terining irsiy kasalligi bo'lib, bunda teri quruqlashib, po'st tashlaydi, baliq tangachasini eslatuvchi qalin muguz qatlamlar hosil bo'ladi.

Bu ikkala kasallik ham ancha murakkab va nisbatan kam uchraydi. Lekin bunday tashxis qo'yilgan bemor ham oilasiga yetarlicha tashvish tug'diradi, o'zi ham azob chekadi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi va Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, ana shunday irsiy kasallik tashxisi qo'yilgan bolalarga tegishli bepul tibbiy yordam ko'rsatilmoqda.

Bo'linda bemorlar davlat tibbiy sug'urtasi asosida imtiyozli yo'llanma bilan davolanadi. Ikki yil davomida 600 ga yaqin "baliq" va "kapalak" bolalar davolandi, — deydi gen dermatozlarini davolash tib-

## Hech kim e'tibordan chetda emas

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi hududiy vakillari ijtimoiy tarmoqlarni muntazam kuzatib boradi. Ana shunday kuzatishlarida birida Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida yashovchi Mobibi Yarova yuqori texnologik jarrohlik amaliyotini o'tkazish uchun moddiy yordam kerakligi aniqlandi.

Mobibi opa tug'ma I guruh nogironi. U 20 yildan buyon revmatoidli poliartrit kasalligi bilan kurashib kelmoqda. Og'riqlar kuchayib, moddiy tomondan qiynalgan ayol o'z-galar yordamiga muhtoj bo'lib qoldi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi Surxondaryo viloyati hududiy bo'linmasi o'rganishlari natijasida u uzoq yillardan buyon ikkala chanoq-son bo'g'imidagi og'riqlar, bo'g'imlar harakatlari cheklanishi, oyoqlarini bosa olmaslikdan aziyat chekib kelayotganini aniqlandi.

Qisqa vaqt ichida Mobibi opaning hujjatlari to'planib, yo'llanma asosida Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida davolandi.

Hozir uning holati yaxshi, harakatlari tiklanmoqda, shifokorlarning doimiy nazoratiga olingan.

O'zgalardan najot izlagan ayolni davlatimiz himoyasiga oldi. Davolanishi va reabilitatsiya jarayoni uchun talab etilgan barcha xarajatlari Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tomonidan qoplab berildi.

## Xayli amallarning uzviy davomi

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat das-



biy bo'limi boshlig'i, dermatolog Madamin Xoldorbekov.

Murodjon Abdug'afrov "kapalak" kasalligi bilan tug'ildi. U hozir 16 yoshda. Terisida kapalak tusidagi jarohat ko'zga tashlanadi. Har olti oyda davolanish kasallik asoratlarini bir oz yumshatadi. Ammo shifoxona xarajatlari oilasini charchatib qo'ygandi.

Kasal kasal emas, kasal boqqan kasal, — deydi Murodjonning buvisi Sofiya Toshpo'latova. — Nabiraning og'ir xastalik bilan tug'ilgani bir tomon bo'lsa, uning parvarishi va davolanishi bir tomon. Sarson-sargardonlik, yetishmovchilikdan toliqqan paytimiz ko'p bo'ldi. Ammo o'tgan yildan boshlab tashvishlarimiz arigan. Shifoxona xarajatlari davlatimiz tomonidan to'lab berilayotgani bizga ancha ko'mak bo'ldi. Yaxshi sharoit yaratilgan shifoxonada bepul muolaja olayotganimiz ko'ngilga taskin beradi.

Yangi tizim nafaqat aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini va hajmini, balki kasalliklarning oldini olish va erta aniqlash, aholining o'rta umr ko'rish davomiyligini oshirish imkonini bermoqda. Bu tibbiy xizmatlar ko'rsatishda sog'lom raqobat muhiti yaratadi. Davlat tibbiy sug'urtasi "Qaysi shifokorni ko'rishim, retseptlangan dori-darmonlarni qayerdan topishim mumkin va ularning narxi qancha", degan savollarga o'rin qoldirmaydi.

turida davlat tibbiy sug'urtasini joriy etish ishlarini davom ettirish vazifasi yuklatilgan.

Hududlarda davlat tibbiy sug'urtasi tizimiga o'tishga tayyorgarlik davom etmoqda, — deydi jamg'arma ijro etuvchi direktori o'rinbosari Ulug'bek Qandimov. — Xususan, Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Samarqand, Surxondaryo, Navoiy hamda Buxoro viloyatlaridagi tibbiyot muassasalarida shifokor oldi ko'ruv xonasi holati, kafolatlangan paketga kiritilgan tibbiy xizmatlar sifatini kabi masalalar monitoring qilinmoqda. Maqsad — davlat tibbiy sug'urtasi tizimida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirish orqali kasalliklarni erta aniqlash, to'g'ri tashxislash hamda sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish choralarini o'rnatish.

Chekkah va o'lis hududlar aholisining turmush sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti asta-sekin yuksalib borayotir. Xalqimiz salomatligini asrash, sog'lom yashash huquqini ta'minlash orqali yurtodoshlarimiz roziligiga erishish yo'lida sezilarli qadamlar qo'yilmoqda. Buni ko'plab xalqimiz o'z taqdiri misolida ko'rib, guvohi bo'lib turibdi. Bugun inson salomatligini ta'minlash yo'lidagi muhim va xayrli sa'y-harakatlar erangi kun bilan bog'liq yurug' orzular ro'yobini ta'minlaydi. Inson qadriini ulug'lash mehri siyosatning bir nishonasi bo'layotgan ekan, erangi sog'lom va go'zal hayotga umid qilsa bo'ladi.



MA'NAVIYAT SABOQLARI

“...Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho’pon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo’q”.

Prezident Shavkat MIRZIYOYEVning 2017-yil 3-avgust kuni O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvidagi ma’ruzasidan

YASSAVIY XOKI POYIDAN AYLAB OLING TUMORLAR..

Xalqimiz azaldan dunyo tamadduniga beqiyos nissa qo’shgan allomalari, ularning boy ilmiy-ma’naviy merosi bilan boshqa xalqlar orasida hurmat-e’tiborga sazovor bo’lib kelgan. Sharqona ta’lim-tarbiyada or-nomus, odob-axloq, sabr-qanoat, bag’rikenglik, ilm-ma’rifatga intilish, o’zidan yaxshi nom, yaxshi amallar qoldirish kabi fazilatlar bundan ming yillar avval ham bugungidek muhim ahamiyat kasb etgan.

yutuqlaridan bahramand bo’lish, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning o’z ota-onalariga g’amxo’rlik qilishi, ota-onalar farzandlarini voyaga yetgunga qadar tarbiyalashi kabi talablar milliy qadriyat sifatida konstitutsiyaviy burchimizga aylandi.

Prezidentimizning turli kasb egalari, nuroniyalar, yoshlar, ijodkor ziyolilar bilan mu-loqotlarida, Oliy Majlisga Murojaatnomalarida yangi avlod tarbiyasining milliy taraqqiyot bilan bevosita bog’liqligi oldimizda turgan eng muhim vazifa ekanini alohida uqtiriladi. Biz bugun tarixning yangi uyg’onish fasliga poydevor qo’yayotgan ekanimiz, bu ulug’ vazifani

yasi a’zolari uchun davra suhbatini tashkil etildi. Ta’kidlash o’rinliki, ushbu universitetlar o’rtasida do’stona aloqalar o’rnatilgan bo’lib, hamkorlik fakultetlararo va talabalar almashinuvi dasturlari, qo’shma ta’lim va ilmiy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ilmiy tadqiqot faoliyati natijalarini birgalikda nashr etish, tomonlardan biri tashkil etgan kurslar, seminarlar, treninglar, konferensiyalar va simpoziumlarda ishtirok etish, o’quv materiallari va boshqa ma’lumotlar almashinuvi, shuningdek, qo’shma kurs materiallarini ishlab chiqish, turizm sohasida tajriba almashish kabi tadbir va dasturlarni o’z ichiga oladi. Dasturlarda milliy qadriyatlar hamda an’analari bilan bog’liq turli saboqlar va davra suhbatlari alohida e’tibor qaratiladi.

Buvim oliy ma’lumotli bo’lmasa-da, uyimizdagi Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlari” dan tortib, “Sharq yulduzi” jurnalida bosilgan eng yangi hikoyalargacha o’qib, tahlil qilib berardi. U kishi aytgan hikmatlar, ertaklar-u maqollar, o’sha mashhur asarlar haqidagi mulohazalari hali-hamon qulog’im ostida jaranglaydi.

Shvetsiyalik do’stlarimiz ulug’ allomalarni qoldirgan noyob ma’naviy merosga, ko’lna shaharlarimizga o’zgaracha qiziqish bilan qarayotgani bizni quvontirdi. Ular kelgusi yilda muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar va ko’lna me’morchilik namunalari bo’lgan qadim binolarni ziyorat qilish uchun mamlakatimizga kelish niyatida. Hatto Lund universiteti talabalaridan biri o’zbek tilini qiziqish bilan o’rgangan, ayniqsa, o’zbek mumtoz adabiyoti unda katta qiziqish uyg’otganini hayajon bilan so’zlab berdi. Uppsala va Lund universitetlari kutubxonalarida turkiy xalqlarga oid 858 ta tarixiy qo’lyozma mavjudligi haqida aytib o’tdi. Ular orasida Alisher Navoiy, Bobur, Fuzuliy, So’fi Olloyov, Mashrab kabi mashhur ijodkorlardan tashqari hali xalqimizda noma’lum bo’lgan shoirlar, tarjimonlarning ham qo’lyozmalari mavjud ekan. Ayniqsa, Yassaviy hikmatlaridagi yuksak mantiq mumtoz shved adabiyoti bilan juda o’xshashligini ta’kidladi. Biz ham shved xalqining milliy qadriyat va an’analari bilan bog’liq ko’plab asarlarini Lund universiteti o’qituvchilari va talabalari bilan hamkorlikda o’rganish niyatidamiz. Zero, ma’naviy jihatdan bir-birini anglagan, hurmat qilgan xalqlar har sohada yakdil bo’lishi tabiiy.



Gulnora IBROHIMOVA, pedagogika fanlari doktori, professor

Qalblari ilm-ma’rifat nuridan munavvar bo’lgan kishilar kibrga, ortiqcha hoyu-havasga berilmay, kamtar va kamsuqum hayot kechirishni afzal bilib kelgan. Ulug’larimizning bizga qoldirgan ma’naviy merosida bu borada ko’p hikmatlar, rivoyatlar, ibratli hikoyatlar bor. Bolaligimda buvim rahmatli Ahmad Yassaviy avlodlaridan ekanimizni, donishmand bobomiz o’z misralarida insoniylikning eng afzal jihatlari marjondek terib, hikmatlar tarzida bizga meros qoldirib ketganini ko’p ta’kidlar edi.

Buvim oliy ma’lumotli bo’lmasa-da, uyimizdagi Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlari” dan tortib, “Sharq yulduzi” jurnalida bosilgan eng yangi hikoyalargacha o’qib, tahlil qilib berardi. U kishi aytgan hikmatlar, ertaklar-u maqollar, o’sha mashhur asarlar haqidagi mulohazalari hali-hamon qulog’im ostida jaranglaydi.

O’sha damlarda buvim Abdulla Qripovning mana bu misralarini bot-bot takrorlar edi:

Nafs ila dunyoga dil bergan fosiqlar, siz bukun Yassaviy xok-poyidan aylab oling tummorlar...

Ha, saxovatpeshalik, bag’rikenglik, har qanday holatda ham ma’naviy komillikka intilish, farzandlarni imon-e’tiqodli qilib tarbiyalash, nafs qutqularidan dilni omon saqlash xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Shu bois, el-yurtimiz ne-ne bosqin istilolarga, og’ri yo’qotishlarga qaramay, o’zligini, dinu diyonatini asrab qolgan. Ma’rifatga, qalb ziyosiga intilgan kishilarning ibratli hayoti, ilmiy va badiiy merosi muho-

sahifalarini doimo yoritib turadi. Xalqimizning tabiati va tarixan orttirgan tajribasidan kelib chiqqan holda aytish mumkin, ma’naviyat kishilarning hayotidagi muhim qadriyatdir. Hozirgi kunda jinoiy xatti-harakatlar milliy-ma’naviy tafakkur zaiflashgan, milliy qadriyat-

Ushbu qutlug’ g’oya jamiyatimiz hayotida azaldan jamoa bo’lib yashash ruhining bugun ham ustuvorligi, oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligini o’zida to’la aks ettiradi. Ota-onaga, qarindoshlarga, xotin-qizlarga ehtirom, mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlar hayotimizning oltin zanjirini ekanini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, bu g’oya qonun ustuvorligi, inson haq-huquqlari va erkin fikr ehtiyojini, turli millat va elat vakillariga, ularning milliy tuyg’ulari va diniy e’tiqodiga hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlarini ham o’zida mujassam etadi.

Bugun ham talabalar girdobida qolayotgan dunyoni saqlab qolishning yagona najot yo’li — ma’naviyatni asrashdir. Faqat shu fazilat bilangina omon qolish mumkin. O’rtimizdan kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga, farzandlarimizning birgina savoliga e’tiborsizligimiz, talabchilikning bir zum susayishi ham jiddiy muammolarga sabab bo’lishi mumkin. Bu saboq, ayniqsa, bugun — yoshlar ongi va qalbinu egallash uchun kurash dunyo miqyosida kuchayayotgan bir paytda yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tarbiya nainki ota-onaning, ustoz-murabbiyning, jamiyat taqdiriga, tinchlik-totuvlikka befarq bo’lmagan har bir kishining muhim vazifasi hisoblanadi. Ma’naviyat qayerda sust bo’lsa, shu yerda il-

latlar urchiy boshlaydi, yosh, hayotiy tajribasi kam yoshlar turli g’arazli oqimlar ta’siriga tushib qoladi.

Hozirgi kunda jinoiy xatti-harakatlar milliy-ma’naviy tafakkur zaiflashgan, milliy qadriyat-



lar va an’analariga rioya qilish sustlashgan, tarixiy xotira unutila boshlagan hamda ona tilining qo’llanilishi kamaygan hududlarda ko’proq sodir bo’layotgani tez-tez e’tirof etilmoqda.

Asosiy qonunimizda inson sha’ni, g’ururi, qadr-qimmatini, boshqa daxlisiz haq-huquqlari oliy qadriyat darajasiga ko’tarildi. O’qish, mehnat qilish, ilm-fan, madaniyat va san’at

ma’naviyat asoslarini, zamonaviy bilimlarni, il-g’or xalqaro tajribalarni talab darajasida egalamay turib, amalga oshirib bo’lmaydi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 3-avgust kuni O’zbekiston ijodkorlari vakillari bilan uchrashuvi yurtimiz ziyolilarining, yozuvchilarning yodida o’chmas xotira bo’lib qolgan. Chunki bu tarixiy madaniy uchrashuv

respublikamiz san’atkorlari, ijodkorlari hayotiga juda katta o’zgarishlar olib kirgan, ularning oldidagi zalvarli darvozalar, eshiklar, yo’larni ochgan suhbat bo’lgan edi.

Shu uchrashuvdan keyin mamlakatimiz ilm-fani, milliy ma’rifatimiz yo’lida katta uyg’onish, yuksalish davri boshlandi. Xususan, oliy ta’lim muassasalari faoliyatida ham tub o’zgarishlar ro’y berdi. Ziyolilarimiz har tomonlama qo’llab-quvvatlanib, ilmiy tadqiqotlari bilan yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo’shishga kirishdi.

Bu jarayonda rivojlangan mamlakatlar tajribasini o’rganish ham qo’l kelmoqda. Shu maqsadda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining bir guruh professor-o’qituvchilari 2023-yil 11-21-noyabr kunlari Shvetsiya-ni Lund universitetida tashkil etilgan qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida qatnashdi. Trening davomida Shvetsiya oliy ta’lim muassasasining yetakchi mutaxassislari o’zbek hamkorlarini huquq ustuvorligini ta’minlash va korruptsiyaga qarshi kurash yo’nalarida o’zlaridagi ilg’or tajriba bilan tanishtirdi.

Tashrif doirasida mamlakatimizning Shvetsiyadagi elchixonasi tomonidan Lund universiteti professorlari Rustam O’rinboev va Sherzod Eraliyev bilan O’zbekiston delegatsi-

NUQTAYI NAZAR

REKLAMANING O’Z TALABLARI BOR

unda davlat tiliga oid me’yorlar buzilmasligi kerak



Asadulla QAYUMOV, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo’mitasi raisi o’rinbosari

Shu o’rinda aytish kerakki, 2022-yil yangi tahrirda qabul qilingan “Reklama to’g’risida”gi qonunga davlat tiliga oid norma kiritildi. Qonunning 6-moddasiga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi hududida reklama davlat tilida tarqatiladi.

Reklama mazmunining tarjimasini quyidagi talablarga rioya etgan holda boshqa tillarda takror berilishi mumkin:

O’zbek tili — milliy o’zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. Shu bois, Prezidentimiz O’zbek tili bayrami kuni munosabati bilan xalqimizga yo’llagan bayram tabrigida mamlakatimizda o’zbek tilining davlat tili sifatidagi o’rni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasi milliy o’zligimizni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug’ kelajagimizni ta’minlashning eng muhim omili ekanini alohida ta’kidladi.

— reklama mazmunining boshqa tillardagi tarjimasini matni uning O’zbekiston Respublikasi davlat tilidagi asosiy ma’nosini buzib ko’rsatmasligi kerak;

— tashqi reklama orqali joylashtiriladigan reklamaning boshqa tillardagi tarjimasini matni O’zbekiston Respublikasi davlat tilidagi reklama matnining pastki qismida gorizontal holda joylashtirilishi va umumiy reklama maydonining qirg’ foizidan oshmasligi kerak;

— reklamaning boshqa tillardagi tarjimasini matni harfining o’lchami O’zbekiston Respublikasi davlat tilidagi reklama matni harfining o’lchamidan kichik bo’lishi kerak;

— tele va radiokanalarda, shuningdek, bosma nashrlarda tarqatiladigan reklamaning boshqa tillardagi tarjimasini har kungi umumiy reklama hajmining yigirma foizidan oshmasligi kerak.

Bundan tashqari, “Davlat tili haqida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunining 20-moddasiga asosan, lavhalar, e’lonlar, narxnomalari va boshqa ko’rgazmali hamda og’zaki axborot matnlari davlat

Tahlillar shuni ko’rsatmoqdaki, bugungi kunda reklama faoliyatini tartibga solishda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, qonunchilikda davlat tiliga doir talablar mavjud bo’lsa-da, mazkur talablarni buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Bu holat esa, o’z navbatida, reklama beruvchilar tomonidan qonun talablariga to’liq rioya etilmasligiga olib kelmoqda. Buning natijasida shahrimiz ko’chalarida betartib joylashtirilgan, turli-tuman ajnabiy tillarda yozilgan reklama va boshqa tashqi yozuvlar ko’payib bormoqda.

tilida rasmiylashtirilishi va e’lon qilinishi belgilangan.

Bu borada O’zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo’mitasi hamda mutasaddi tashkilotlar tomonidan doimiy ravishda reklamalarning davlat tili qoidalari muvofiqligini ta’minlash yuzasidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, hududlarda joylashgan tashqi reklama obyektlaridagi reklamalarning davlat tili qoidalari mosligini o’rganish yuzasidan 9,5 mingga yaqin monitoring o’tkazildi.

Shundan 35 foiz holatda reklamalar “Reklama to’g’risida”gi qonunda belgilangan davlat tiliga oid talablarga muvofiq emasligi bois, ularni tezkor bartaraf etish

choralari ko’rilgan. 16 foiz holatda reklamaning matni boshqa tillarda berilgani kuzatilgan. Shuningdek, 17 foiz reklama va e’lonlar matnida imloviy va lug’aviy xatolar mavjudligi aniqlangan. Mazkur talablardan kelib chiqqan holda, o’tkazilgan o’rganishlarda davlat tilidan boshqa tillarda aks ettirilgan va imloviy xatolarga yo’l qo’yilgan holatlarni bartaraf etish, umuman, davlat tili va

reklama to’g’risidagi qonunchilikka qat’iy rioya etilishi yuzasidan 1 600 dan ortiq tadbirkorlik subyektlariga rasmiy ogohlantirish taqdim etildi va ular bilan o’tkazilgan tushuntirish profilaktika ishlarini natijasida kamchiliklar ixtiyoriy ravishda bartaraf etilishi ta’minlandi.

Shu bilan birga, joriy yilning avgust-sentabr oylarida Toshkent shahri va viloyatidagi tashqi yozuvlar, xususan, peshlavha, reklama va boshqa e’lonlar, axborot matnining davlat tili va reklama to’g’risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini o’rganish bo’yicha ishchi guruhi tomonidan bevosita joyiga chiqqan holda har bir tuman bo’yicha o’rganish olib borildi.

Tahlillar shuni ko’rsatmoqdaki, bugungi kunda reklama faoliyatini tartibga solishda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, qonunchilikda davlat tiliga doir talablar mavjud bo’lsa-da, mazkur talablarni buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Bu holat esa, o’z navbatida, reklama beruvchilar tomonidan qonun talablariga to’liq rioya etilmasligiga olib kelmoqda. Buning natijasida shahrimiz ko’chalarida betartib joylashtirilgan, turli-tuman ajnabiy tillarda yozilgan reklama va boshqa tashqi yozuvlar ko’payib bormoqda.

Shu o’rinda Abdulla Qahhorning “Nima uchun ko’cha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi?”, degan so’zlari

yodga tushadi. Shuning uchun Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo’mitasi tomonidan reklamaning taylorlash, joylashtirish va tarqatishdagi munosabatlarni tartibga solish, yuqoridagi kabi qonunbuzilish holatlarining oldini olish, mamlakatimizda davlat tilining nufuzi va mavqei yanada oshirish, reklama berishda davlat tiliga doir talablarni buzgan fuqaro va mansabdor shaxslar uchun ma’muriy javobgarlik belgilash maqsadida “O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksiga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, jamoatchilik muhokamasi-ga havola etildi.

Loyihada davlat tiliga doir talablarni buzgan fuqaro va mansabdor shaxslar uchun ma’muriy javobgarlik belgilash, bunda, tashqi yozuvlar, xususan, peshlavha, reklama va boshqa e’lonlar, axborot matnlarining lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosisida taqdim etish shartligi talablari belgilanmoqda.

Bunda, albatta, reklamalarni davlat tili bilan birga boshqa tillarda ham berish mumkin, bunga hech qanday to’siqlar yo’q. Faqat qonunning 6-moddasida belgilanganidek, reklama mazmunining boshqa tillardagi tarjimasini matni uning davlat tilidagi asosiy ma’nosini buzib ko’rsatmasligi, davlat tilidagi reklama matnining pastki qismida gorizontal holda joylashtirilishi, boshqa tillardagi tarjima matni harfining o’lchami davlat tilidagi reklama matni harfining o’lchamidan kichik bo’lishi kabi talablarga rioya qilinishi kerak.

Binobarin, ulug’ shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, “Ona tili — umummillat mulki. Demak, til o’ldirgani mas’uliyat ham umum-milliy bo’lib, bu yolg’iz tilshunoslarning emas, butun millatning ishi” ekanini doimo yodda tutmog’imiz lozim.